

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 59 357,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020-yilning yanvar-dekabriga nisbatan o'sish sur'ati 107,2 foizga teng bo'ldi.

2021-yil yanvar-dekabr oylarida YAHM deflyator indeksi 109,5 foizni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) - milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident - institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 57 983,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,2 foizga yuqori bo'ldi.



Yanvar-dekabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

	<i>mlrd. so'm</i>		<i>o'sish sur'ati, % da</i>
	<i>2020-yil</i>	<i>2021-yil</i>	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	50 605,8	59 357,7	107,2
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	49 684,3	58 347,4	107,2
Mahsulotlarga sof soliqlar	921,5	1 010,3	107,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	49 684,3	58 347,4	107,2
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6 862,2	8 770,5	104,0
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	37 008,9	42 437,2	107,4
sanoat	35 324,2	40 265,2	107,0
qurilish	1 684,7	2 172,0	115,1
Xizmatlar	5 813,2	7 139,7	109,6

	mlrd. so'm		o'sish sur'ati, % da
	2020-yil	2021-yil	
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 280,6	1 577,2	109,7
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	771,4	988,8	118,8
boshqa xizmatlar	3 761,2	4 573,7	107,6



Yanvar-dekabr oylarida yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibi, (% da)






2021-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atiga ijobiy ta'sir tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari (118,8 foiz), qurilish (115,1 foiz), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (109,7 foiz), boshqa soha xizmatlari (107,6 foiz) tarmoqlaridagi yalpi qo'shilgan qiymat hissasiga to'g'ri keldi.

YAHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 27,1 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keldi va bu ko'rsatkich 2020-yilning yanvar-dekabriga nisbatan 1,7 foizga kupaydi.



2021-yil yanvar-dekabr oylarida YAHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi, (% da)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va mutlaq o'sish sur'atlari

